



# Favqulodda vaziyatlar vaziri KUBOGI



## I BOSQICH

20-30-sentabr

Shahar-tumanlarda

“Men qutqaruvchiman” estafetasi



1. Estafeta



2. Birinchi tibbiy yordam



voleybol



shaxmat



ijodiy taqdimot  
(tanimtiruv)

Har bir jamoa 8 nafar (2 6) ishtirokchidan iborat

## II BOSQICH

5-15-oktabr

Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahrida

O'tkaziladigan sport turlari:

“Men qutqaruvchiman” estafetasi



1. Estafeta



2. Birinchi tibbiy yordam



3. Chodir tiklash



voleybol



shaxmat

ijodiy taqdimot  
(ijodiy chiqish)

argon tortish

## III BOSQICH (respublika)

25-27-oktabr

FVV Akademiyasida

“Men qutqaruvchiman” estafetasi

1. Estafeta



3. Chodir tiklash

2. Birinchi tibbiy yordam



4. Brain-ring

voleybol



shaxmat



argon tortish



ijodiy taqdimot  
(sahna ko'rinishi)



Zakovat

**“Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!”**  
**shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vazirining kubogi uchun**  
**otaliqqa olingan yoshlar o‘rtasida sport musobaqalari**  
**va ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish bo‘yicha**  
**NIZOM**

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, ularning qobiliyati va mahoratini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish, “Qutqaruvchilik” sharafligi qiziqtirish va bo‘sish vaqtini mazmunli o‘tkazishlarini ta’minlash maqsadida sport musobaqalari va ko‘rik-tanlovlar tashkil etiladi.

“Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!” shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vazirining kubogi (keyingi o‘rinlarda Vazir kubogi deb yuritiladi) otaliqqa olingan yoshlar (keyingi o‘rinlarda yoshlar deb yuritiladi) o‘rtasida sport musobaqalari va ko‘rik-tanlovlarni (keyingi o‘rinlarda musobaqalarni deb yuritiladi) tashkil etish orqali o‘tkaziladi.

Mazkur Nizom otaliqqa olingan yoshlar o‘rtasida Vazir kubogi musobaqalarini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Yoshlar o‘rtasida tashkil etiladigan musobaqalar vazirlik harbiy xizmatchilari biriktirilgan mahallalar kesimida, uch bosqichda, ya’ni, **I bosqich – tuman-shahar, II bosqich – viloyat va III bosqich – respublika** bosqichi miqyosida o‘tkaziladi.

2. Har bir mahallaga biriktirilgan harbiy xizmatchi va yoshlar yetakchisi tomonidan 18 dan 25 yoshgacha bo‘lgan otaliqqa olingan yoshlar orasidan 8 nafardan iborat (shundan 6 nafar o‘g‘il, 2 nafar qiz) kamida 1 ta “Mahalla terma jamoasi”ni shakllantiriladi.

3. “Mahalla terma jamoasi”ga ta’lim muassasalaridan 3 (uch) nafargacha ishtirokchini jalb etishga ruxsat etiladi.

4. Musobaqalar quyidagi shartlar asosida o‘tkaziladi:

#### **I bosqichda:**

- “Men qutqaruvchiman” estafetasi (3-daraja)
- Voleybol
- Shaxmat
- “Ijodiy taqdimot” (3-daraja)

#### **II bosqichda:**

“Men qutqaruvchiman” estafetasi (2-daraja)

Voleybol

Shaxmat

Arqon tortish

“Ijodiy taqdimot” (2-daraja)

### **III bosqichda:**

“Men qutqaruvchiman” estafetasi (1-daraja)

Voleybol

Shaxmat

Arqon tortish

Zakovat

“Ijodiy taqdimot” (1-daraja)

5. Musobaqalarning I va II bosqichi eng namunali yong‘in-qutqaruv qismlarida, hududdagi sport majmularida hamda III bosqich vazirlikning ta’lim muassasalari hududida tashkil etiladi.

6. Musobaqalarning I va II bosqichlarida faqat birinchi o‘rinni egallagan mahalla jamoasi keyingi bosqichda ishtirok etishi mumkin.

7. Musobaqalarni har bir bosqichini o‘tkazish uchun tuman va shahar FVB boshliqlarining, viloyat bosqichini o‘tkazish uchun viloyat FVB boshlig‘ining hamda respublika bosqichi o‘tkazish uchun Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyrug‘i ishlab chiqiladi. Mazkur buyruqlar bilan musobaqalarni o‘tkazish muddatlari, joyi va hakamlar hay’ati tasdiqlanadi.

Musobaqaning “Ijodiy taqdimot” shartiga alohida mutaxassislardan iborat hakamlar hay’ati tuziladi.

### **2-bob. Musobaqalar shartlari va baholash mezonlari**

8. “Men qutqaruvchiman” estafetasi.

8.1. “Men qutqaruvchiman” estafetasi I bosqichda “Estafeta” va “Birinchi yordam ko‘rsatish” shartlari asosida o‘tkaziladi.

“Estafeta” – maxsus yong‘in o‘chiruvchilar va qutqaruvchilar estafetasi (4x100) bo‘yicha o‘tkaziladi. Ushbu shartda har bir jamoadan uch nafar o‘g‘il bola va bir nafar qiz bola ishtirokchilar qatnashadi. Mazkur shart “Yong‘in o‘chirish amaliy sporti bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish” qoidalari asosida o‘tkaziladi va baholanadi, shuningdek, ushbu shart o‘tkazilganda yonish uchun mo‘ljallangan qorishma miqdori me’yordan kamroq qo‘llaniladi (alanga balandligi 20-30 sm.dan oshmasligi lozim). Eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan 3 ta jamoaga tegishlisha 10, 7 va 5 ball beriladi.

“Birinchi yordam ko‘rsatish” shartida jamoalar birinchi yordam ko‘rsatish (oyoq, qo‘l yopiq (ochiq) singanda, jarohat oqibatida qon ketganda va yurak-o‘pka reanimatsiyasida birinchi yordam ko‘rsatish) turlari bo‘yicha bellashadilar. Ushbu shartda har bir jamoadan bir nafar o‘g‘il va bir nafar qizlar qatnashadi. Vaziyatli topshiriqlarni bajarish uchun “shartli jabrlangan” sifatida jamoaning bir nafar ishtirokchisi va trenajyor-manekendan foydalaniladi. Birinchi yordam ko‘rsatish anjomlari to‘liq ta’milnadi. Shart maxsus lentalar bilan chegaralangan hududda start va finish chiziqlari bilan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘ylgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini qo‘yadi. Topshiriqlarni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi

va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi.

Eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan 3 ta jamoaga tegishlicha 10, 7 va 5 ball beriladi.

8.2. “Men qutqaruvchiman” estafetasi II bosqichda “Estafeta”, “Birinchi yordam ko‘rsatish” va “Dor yo‘li va chodir tiklash” shartlari asosida o‘tkaziladi.

“Dor yo‘li va chodir tiklash” shartida har xil ko‘rinishda va balandlikda o‘rnatilgan dor yo‘llari orqaliy jamoalar arqonlar yordamida o‘tish hamda chodir tikish bo‘yicha bellashadilar. Ushbu shartda har bir jamoadan to‘rt nafar o‘g‘il bola va ikki nafar qiz bola ishtirokchilar qatnashadi.

Bu shartda maxsus lentalar bilan chegaralangan hududda start va finish chiziqlari bilan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini belgilaydilar. Shartni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi.

Eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan 3 ta jamoaga tegishlicha 10, 7 va 5 ball beriladi.

8.3. “Men qutqaruvchiman” estafetasi III bosqichda “Estafeta”, “Birinchi yordam ko‘rsatish”, “Dor yo‘li va chodir tiklash” va “Savol-javob” shartlari asosida o‘tkaziladi.

“Savol-javob” shartida har bir jamoadan uch nafar o‘g‘il bola va ikki nafar qiz bola ishtirokchilar qatnashadi. Jamoa sardori Hakamlar hay’ati tomonidan jamoalar soniga mos ravishda tayyorlangan maxsus konvertlar ichidan bittasini tanlaydi. Konvertlarda beshta savoldan iborat bilet bo‘ladi. Barcha savollar jamoa tomonidan muhokama qilinadi va bir ishtirokchi yakuniy javobni beradi. Tayyorgarlik ko‘rish uchun 5 daqiqa hamda javob berish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Bu shartda qo‘srimcha javoblar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi hamda jamoa ishtirokchilarini almashtirishga ruxsat etilmaydi. Har bir savolga to‘liq javob berilsa 2 ball, to‘liqsiz javobga 1 ball hamda javob noto‘g‘ri bo‘lsa ishtirokchi 0 ball bilan baholanadi. Mazkur shartda barcha savollarga to‘g‘ri va to‘liq javob berilsa jamoa 10 ballni qo‘lga kiritadi.

8.4. Jamoalar tomonidan bajarilgan shartlar quyidagi tartibda jarima ballari beriladi:

T/r	Jarimalar	Jarima vaqt soniya
<b>Birinchi yordam ko‘rsatish sharti bo‘yicha:</b>		
1.	Kon to‘xtatish bog‘lamini (jgutni) noto‘g‘ri qo‘yish	20
2.	Oyoq singanda immobilizatsiya shinasini noto‘g‘ri qo‘yish	50
3.	Qo‘l singanda immobilizatsiya shinasini noto‘g‘ri qo‘yish	40
4.	Yurak-o‘pka reanimatsiyasini noto‘g‘ri bajarish	60
5.	Birinchi yordam ko‘rsatish ketma-ketligiga rioya qilmaslik	10

T/r	Jarimalar	Jarima vaqtি soniya
6.	Jabrlanganni tashish (evakuatsiya qilish) qoidalarini noto‘g‘ri bajarish	20
7.	Jabrlanganga nisbatan qo‘pol (g‘ayriyinsoniy) munosabatda bo‘lish (har bir harakati uchun)	10
8.	Jabrlanganga birinchi yordam ko‘rsatmaslik	120

**Dor yo‘li va chodir sharti bo‘yicha:**

1.	Har bir muftalanmagan karabin uchun	10
2.	Belgilagan chegara chizig‘idan o‘tib ketgani yoki chiziqni bosgan har bir holat uchun	5
3.	Qutqaruvchi anjomini tushirib yuborsa	20
4.	Chodir yig‘ishda har bir bajarilmagan element uchun	10
5.	Birinchi ishtirokchi dor yo‘lidan tushmasdan ikkinchi ishtirokchi dor yo‘liga chiqsa	10
6.	Ishtirokchining xavfsizlik arqonida osilib qolishi (sryiv)	20

**“Estafeta” sharti bo‘yicha:**

1.	Uychadan o‘tayoganda tushib ketib qaytadan o‘tmasdan shartni davom ettirsa	15
2.	Har bir etap ishtirokchisi o‘zini yugurish yo‘lagidan chiqsa	5
3.	To‘sinq (zabor)dan o‘ta olmasa yoki aylanib o‘tsa	10
4.	To‘sinqni yiqitib yuborsa	5
5.	Bumdan o‘tayotganda tushib ketib qaytadan o‘tmasdan shartni davom ettirsa	15
6.	Yong‘in o‘chirish yenglari bir-biriga qotirlmasa	5
7.	Yong‘in o‘chirish yenglari uch yoqlama ayirgichga ulanmagan bo‘lsa	5
8.	Yong‘in o‘chirish yengiga suv berish dastagi ulanmasa	5
9.	Estafeta dastagi tushirib qoldirilsa (finishga yetqazilmasa)	10
10.	4 etapda maxsus idishda yondirilan yonilg‘i to‘liq o‘chirilmasa	15

Izoh: Musobaqa bosh hakami hakamlar komissiyasining ishini tashkil qiladi va jamoalarning musobaqadagi ishtirokini boshqaradi. Hakamlar ishtirokchilarining harakatlarini jarimalar jadvaliga muvofiq baholaydilar. Agar jamoa rahbari (vakillari) tomonidan izohlar, maslahatlar va sharxlar berilsa, shuningdek, vaziyatni hal qilishdan bosh tortgan hollarda hakamlar musobaqani to‘xtatish mumkin. Bu holda shart tugallanmagan deb hisoblanadi va jamoa 180 soniya jarima bilan jazolanadi;

Shuningdek, shartlar bajarilayotgan vaqtida hakamlar ishiga jamoa rahbari yoki boshqa a’zolari tomonidan to‘sinqlik qilinsa, nomaqbul so‘zlar aytilsa, mazkur shaxsning jamoasi (har bir holat bo‘yicha) 60 soniya jarima bilan jazolanadi yoki Hakamlar hay’atining qaroriga asosan musobaqadan chetlatiladi;

Jamoa rahbari hakamlik ustidan faqat jamoaning shartlarni bajargandan so‘ng appelyatsiya berish huquqiga ega (appelyatsiya musobaqaning bosh hakamiga jamoaning chiqishlari tugaganidan keyin 30 daqiqa ichida beriladi). Musobaqada ishtirok etuvchi boshqa jamoalarning hakamlik qilish bo‘yicha murojaatlari ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi. Hakamlar komissiyasi barcha murojaatlarni ko‘rib chiqadi, qabul qilingan qarorlar jamoa rahbarlariga yetkaziladi.

## 9. “Voleybol” o‘yini sharti.

O‘yin O‘zbekiston Voleybol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida o‘tkaziladi. Har bir jamoa 6 nafar asosiy va 2 nafar zahira ishtirokchini o‘z ichiga oladi. Jamoalar qur‘a tashlash orqali guruhlarga bo‘linadi. Musobaqa olimpiya tizimi shaklida tashkil etiladi.

Eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan 3 ta jamoaga tegishlicha 10, 7 va 5 ball beriladi.

## 10. “Shaxmat” o‘yini sharti.

O‘yin O‘zbekiston Shaxmat Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida o‘tkaziladi. Har bir jamoadan 1 nafardan ishtirokchi (vakil) shaxmat o‘yinlarida qatnashadi. O‘yinchilar qur‘a tashlash orqali guruhlarga bo‘linadi. Musobaqa olimpiya tizimi shaklida tashkil etiladi. G‘olib ishtirokchi jamoasiga 10 ball, 2-o‘ringa 7 ball, 3-o‘ringa 5 ball beriladi.

## 11. Arqon tortish sharti.

Jamoa tarkibi 6 nafar o‘g‘il bolalardan iborat bo‘ladi. Jamoalar qur‘a tashlash yo‘li bilan aniqlanib, musobaqa olimpiya tizimida o‘tkaziladi.

Jamoalar bir-biri bilan bir marotoba bellashadi. Jamoa tarkibidagi 6 nafar ishtirokchilarni har qanday holatda ham almashtirishga ruxsat berilmaydi. Arqon tortish musobaqasida bir marotaba tortish orqali jamoalar bellashadi. G‘olib jamoaga 10 ball, 2-o‘ringa 7 ball, 3-o‘ringa 5 ball beriladi.

## 12. Zakovat sharti “Zakovat” inttelektual klub bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

12.1. Zakovat shartida III bosqichga (respublika) chiqqan jami 14 ta jamoa ishtirokida o‘tkaziladi. Har bir jamoadan 5 nafar (uch nafar o‘g‘il va ikki nafar qiz) ishtirokchilar qatnashadi. O‘yin davomida jamoa ishtirokchilarini almashtirishga ruxsat etilmaydi.

12.2. O‘yin davomida jamoalarga bir paytda bir xil savol beriladi, jamoalar o‘z javoblarini maxsus javob blankalariga yozib berishlari lozim.

Javob blankasining yuqori qismida albatta jamoa nomi, tur va savol raqami ko‘rsatilishi kerak. Ushbu ma’lumotlar hamda jamoaning javob varianti maxsus javob blankasining bir tomonida bo‘lishi kerak.

12.3. Har bir savolni o‘ylash uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Boshlovchi vaqt tugashiga 10 soniya qolgani haqida ogohlantiradi.

12.4. Bir daqiqa vaqt tugagach, jamoalar o‘z javoblarini maxsus javob blankalariga yozishlari uchun yana qo‘srimcha 10 soniya beriladi.

12.5. Jamoalar savol berilib, “vaqt ketdi” ishorasi bildirilgandan so‘ng jami bir daqiqayu 10 soniya tugagan paytda javob variantlarini yozib, maxsus javob blankasini baland ko‘targan holda turishlari lozim.

12.6. Jamoalarning javob variantlari oldindan maxsus tayinlangan sekundantlar tomonidan yig‘ib olinadi va hisob-komissiyasiga topshiriladi. Javob blanklarini jamoa a‘zolari tomonidan mustaqil olib kelinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

123.7. O‘z vaqtida javob blankasini ko‘tarishga ulgurmagan jamoaning javobi “kech topshirildi” qayd bilan yuritiladi. Jamoa javobi to‘g‘ri bo‘lgan taqdirda ham qabul qilinmaydi va jamoaga ball berilmaydi.

12.8. Javob varianti tushunarli husnixat bilan yozilgan bo‘lishi va aniq javobni ko‘zlashi lozim. Mantiqiy tugallanmagan javob varianti qabul qilinmaydi.

12.9. Javob blankasida faqat 1 ta javob varianti aks etishi lozim. Ikki yoki undan ortiq variant yozilgan javob variantlari, garchi ulardan biri to‘g‘ri bo‘lsa ham, qabul qilinmaydi va jamoaga ball berilmaydi.

12.10. Ustiga chizilgan, bo‘yalgan yoki qavsga olingan javob variantlari hisobga olinmaydi.

12.11. Hisob komissiyasining qarori apellyatsiya natijasida o‘zgartirilishi mumkin.

O‘yin yakunida 1-o‘rinni egallagan jamoaga 10 ball, 2-o‘ringa 7 ball, 3-o‘ringa 5 ball beriladi.

### 13. “Ijodiy taqdimot” sharti.

Ijodiy taqdimotda jamoaning barcha a’zolari qatnashishi mumkin. Ijodiy taqdimot 3 ta darajada – shahar-tuman, viloyat va respublika darajasida o‘tkaziladi. Ushbu shartga 5 daqiqa vaqt beriladi.

#### 13.1. Tanishtiruv sharti. (3-daraja)

Tanishtiruv shartida jamoaning barcha a’zolari qatnashadi. Unda jamoaning nomi, shiori va maqsadi ijodiy ko‘rinishda tanishtiriladi. Jamoaning chiqishi – 3 ball, nomi – 1 ball, shiori – 1 ball hamda kiyim-boshi (formasi) – 5 balldan, jami 10 ballik mezonda baholanadi.

#### 13.2. Ijodiy chiqish. (2-daraja)

Mazkur shartda erkin mavzuda ijodiy faoliyatning turli ko‘rinishlari – she’riyat, ashula, musiqa va raqs, rassomchilik, qiziqchilik, taqlid, aktyorlik mahoratidan foydalilaniladi. Ijodiy chiqish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi, 10 ballik mezonda baholanadi.

#### 13.3. Badiiy sahna ko‘rinish. (1-daraja)

Mazkur shartda jamoa a’zolari ijtimoiy hayotdagi dolzarb mavzular (Vatan, tinchlik, oila, do‘slik, mehr-oqibat va b.q.), kino, roman yoki tarixi asarlardan foydalangan holda sahna ko‘rinishni namoyish etadi. Shuningdek, komediya va yumoristik chiqishlarga ham ruxsat etiladi. Jamoalarga 7 daqiqa vaqt ajratiladi, 10 ballik mezonda baholanadi.

### 14. Yakunda barcha to‘plangan ballar qo‘shiladi.

Baholash chegaralari:

I bosqich (maksimal 50 ball): “Men qutqaruvchiman” estafetasi (3-daraja) – 20 ball; Voleybol – 10 ball; Shaxmat – 10 ball)ni tashkil etadi; “Ijodiy taqdimot” (3-daraja) – 10 ball.

II bosqich (maksimal 70 ball): “Men qutqaruvchiman” estafetasi (2-daraja) – 30 ball; Voleybol – 10 ball; Shaxmat – 10 ball; Arqon tortish – 10 ball; “Ijodiy taqdimot” (2-daraja) – 10 ball.

III bosqich (maksimal 90 ball): “Men qutqaruvchiman” estafetasi (1-daraja) – 40 ball; Voleybol – 10 ball; Shaxmat – 10 ball; Arqon tortish – 10 ball; Zakovat – 10 ball; “Ijodiy taqdimot” (1-daraja) – 10 ball.

Eng ko‘p ball to‘plab faqat 1-o‘rinni egallagan jamoa musobaqaning keyingi bosqichiga chiqadi, g‘olibni aniqlashda jamoalar to‘plagan ballar teng bo‘lib qolgan hollarda “Men qutqaruvchiman” estafetasidagi natijalarga ustuvorlik berilib, to‘plangan eng yuqori natijalar hisobga olinadi.

### **3-bob. Musobaqalarni tashkil etish, nazorat va baholash tartibi**

15. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyrug‘iga asosan “Vazir kubogi” musobaqalarini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi, uchinchi bosqichning Hakamlar hay’ati tarkibi, o‘tkazish kuni va joyi, g‘oliblarni taqdirlash tartibi tasdiqlanadi.

15.1. Tashkiliy qo‘mita tomonidan musobaqalarning barcha bosqichini o‘tkazish ishlari muvofiqlashtiriladi, o‘tkazilishi reja-grafik asosida monitoring qilinadi.

15.2. Tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati tarkibiga hamkor vazirlik va idoralarning mutaxassislarini kiritish mumkin.

16. Tuman va shahar FVB boshliqlarining buyruqlarida jamoalarni shakllantirish va tayyorlash muddatlari, musobaqa shartlarini o‘tkazish reja-grafigi tasdiqlanadi.

17. Musobaqalarning barcha bosqichida tashkilotchi va ishtirokchilar bilan yo‘l harakati va texnika xavfsizligi qoidalari yakka tartibda tanishtiriladi.

17.1. Musobaqaning barcha ishtirokchilari ota-onalariga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga “Vazir kubogi” musobaqalari to‘g‘risida xabarnoma yetkazilishi tashkil etiladi.

17.2. Musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish davrida hududiy Tibbiyot birlashmasi xodimlarining ishtiroki ta‘minlanish shart.

18. Mazkur band ijrosini ta‘minlashga viloyat, tuman va shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul etib belgilanadi.

### **4-bob. Musobaqa g‘oliblarni taqdirlash**

19. Musobaqalarning birinchi bosqichida mazkur nizomga muvofiq har bir yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori natijalar ko‘rsatgan mahalla terma jamoasi 1-, 2- va 3-o‘rin bilan belgilanadi. G‘olib bo‘lgan jamoalar tuman va shahar FVB boshliqlarining tegishli diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadilar.

19.1. Birinchi bosqichda 1-o‘rinni egallagan jamoaga 2-bosqich uchun yo‘llanma beriladi.

20. Musobaqalarning ikkinchi bosqichida mazkur nizomga muvofiq har bir yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori natijalar ko‘rsatgan terma jamoa 1-, 2- va 3- o‘rin bilan belgilanadi. G‘olib bo‘lgan jamoalar Hududiy FVB boshliqlarining tegishli diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadilar.

20.1. Ikkinci bosqichda 1-o‘rinni egallagan jamoaga 3-bosqich, ya’ni, respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo‘llanma beriladi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

21. Mazkur nizomga musobaqaning tegishli bosqichiga Tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.
22. Davlat va nodavlat tashkilotlar musobaqada homiylik qilishlari mumkin.
23. Mazkur musobaqaning birinchi va ikkinchi bosqichlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar (materiallar) Hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida, yakuniy (respublika) bosqichi bo‘yicha hujjatlar (materiallar) Vazirlik Ma’naviy-ma’rify va tarbiyaviy ishlar boshqarmasida saqlanadi.
24. Musobaqalarning barcha bosqichlari yakunida Hakamlar hay’ati kotibi tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi va bayonnomani hay’at a’zolari imzolaydi, hay’at raisi tasdiqlaydi. Har bir shart natijalar qaydnomasi hakamlar tomonidan imzolanadi.
25. Musobaqaning barcha bosqichida Hakamlar hay’ati a’zolariga jamoalarning mas’ul vakillari tomonidan yozma yoki og‘zaki ravishda apellyatsiya berilishi mumkin. Ushbu apellyatsiya asoslangan va musobaqaning mazkur Nizom shartlari doirasida bo‘lishi hamda musobaqa sharti yakunlanganidan so‘ng, bir soatgacha berilishi lozim.
26. Musobaqada ishtirok etuvchi otaliqqa olingan yoshlar (har bir jamoadan 6 nafar o‘g‘il bolalar va 2 nafar qiz bolalar), biriktirilgan vazirlik harbiy xizmatchisi va 1 nafar murabbiylardan tashqari, ya’ni agar jamoa tarkibida belgilangan tarkib sonidan ortiqcha ishtirokchilar musobaqa bosqichiga kelganligi aniqlansa musobaqada ishtirok etishga ruxsat etilmaydi.
27. Musobaqalarning barcha bosqichida Hakamlar hay’at a’zolari olingan apellyatsiyani qisqa vaqt ichida ko‘rib chiqib, zudlik bilan yoki bir soatgacha vaqt mobaynida apellyatsiya beruvchiga javob berishi lozim. Hay’at raisi apellyatsiya bo‘yicha yakuniy qaror chiqaruvchi organ hisoblanadi.
28. Musobaqalarning birinchi va ikkinchi bosqichlarini tashkil etish va taqdirlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar hududiy boshqarmalarning budgetdan tashqari mablag‘lari, homiylar va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.
29. Musobaqaning yakuniy uchinchi bosqichini tashkil etish, g‘olib va sovrindolarni taqdirlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyrug‘i bilan belgilanadi.
30. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.